

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



«Tasdiqlayman»

Namangan muhandislik-
qurilish instituti rektori
Sh. Ergashev

2024-y.

**TEKNIKUM BITIRUVCHILARINI OLIV TA'LIM MUASSASASI
BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHIGA YAKKA TARTIBDAGI SUHBAT ORQALI
QABUL QILISH UCHUN**

BAXOLASH MEZONLARI

ANNOTATSIYA

Mazkur baxolash mezonini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi "Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 17-son qaroriga asosan tayyorlandi.

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish uchun o'tkaziladigan suhbat jarayonlari uchun tuzilgan na'munaviy savollar mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish, bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish);

shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari), tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi kabi masalalar o'z aksini topgan.

Ushbu baholash mezonini Namangan muhandislik-qurilish instituti kengashi tomonidan tasdiqlangan.

2024 yil "_____" _____ dagi _____ sonli majlis bayoni.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020 yil 23 sentyabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

Prezidentimizning 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5812-son Farmonini ijro etish maqsadida qaror bilan quyidagilar tasdiqlandi:

- Uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risidagi nizom;
- Boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kasb-hunar maktablarining namunaviy ustavi;
- O'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kollejlarning namunaviy ustavi;
- O'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan texnikumlarning namunaviy ustavi.

Tizimida kollejlarda va texnikumlarda bo'lgan vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalariga tasdiqlangan namunaviy ustav asosida ularning ustavlarini ishlab chiqish hamda ularning faoliyatini ularga muvofiq yo'lga qo'yish topshirildi.

Quyidagilar professional ta'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni inobatga olgan holda iqtisodiyot soha va tarmoqlari uchun zarur bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda jamiyatning kasblar va mutaxassisliklarga bo'lgan talablarini qondirish;
- mehnat faoliyatida zamonaviy AKTni tatbiq qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash;
- xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovasion o'quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish;
- Xalqaro tasniflagich darajalari bilan uyg'unlashgan tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlarini hamda o'qitishning kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;

Xulosa o'rnida, ta'lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

Hujjatlarni qabul qilish

1. Bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasasining 2-bosqichidan o'qishga qabul qilish uchun har yili oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) buyrug'i bilan qabul komissiyasi tuziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) qabul komissiyasining raisi hisoblanadi.

2. Bitiruvchilar har yili 5 iyuldan 25 iyulga qadar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn ro'yxatdan o'tadilar.

3. Bitiruvchilar oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ro'yxatdan o'tishida tizimga shaxsiy ma'lumotlarini kiritishi va quyidagi hujjatlarni yuklashi talab etiladi:

pasport yoki ID-karta nusxasi;

texnikumni bitirganlik to'g'risidagi hujjat va unga ilovaning nusxasi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan vazirlikning rasmiy veb-sayti orqali bitiruvchilarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlari muvofiqlashtirilib boriladi.

4. Onlayn ro'yxatdan o'tgan bitiruvchilarning tizimga yuklangan hujjatlari oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari tomonidan har yili 5 avgustga qadar o'rganib chiqiladi va o'rganish natijalari bo'yicha abituriyentlarning shaxsiy kabineti orqali ularga xabar beriladi.

5. Bitiruvchilar tomonidan topshirilgan hujjatlarning qalbakiligi aniqlanganda, u suhbatdan (talabalikka qabul qilingandan keyin aniqlansa, talabalikdan) chetlashtiriladi hamda hujjatlari belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.

Suhbat jarayonini tashkil etish va o'tkazish

1. Oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) har yili 10 avgustga qadar o'z buyrug'i bilan har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha alohida Suhbat komissiyasini tuzadi.

Suhbat komissiyasi 9 nafardan kam bo'lmagan tarkibda tuziladi va uning tarkibiga kadrlarning asosiy ish beruvchilari bo'lgan tashkilotlar va oliy ta'lim muassasasi bo'ysunuvi bo'yicha vazirliklar va idoralarning mas'ul xodimlari, sohaga taalluqli texnikumning malakali o'qituvchisi hamda boshqa oliy ta'lim muassasasining tegishli soha bo'yicha professor-o'qituvchisi kiritiladi.

2. Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha suhbat jarayoni to'liq videokuzatuv ostida o'tkaziladi va jarayon ota-onalar, kuzatuvchilar uchun ajratilgan alohida kutish joyiga ovoqli tarzda onlayn translyasiya qilib boriladi.

Suhbat jarayoni to'liq va sifatli videokuzatuv ostida o'tkazilishini va videoyozuvlarning kamida uch yil oliy ta'lim muassasasida saqlanishini ta'minlash mas'uliyati shaxsan oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) zimmasiga yuklatiladi.

3. Bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha o'tkaziladigan suhbat jarayoni har yili 10 avgustdan 25 avgustgacha, oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilangan muddatda, Suhbat komissiyasi tarkibining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda o'tkaziladi.

Suhbat o'tkazish muddatlari suhbat jarayonlari boshlanishidan kamida bir hafta oldin oliy ta'lim muassasasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Suhbat jarayoniga jamoatchilik vakillari ham xolis kuzatuvchi sifatida jalb etilishi mumkin.

4. Belgilangan muddatlarda suhbatga kelmagan bitiruvchilarga shu o'quv yili uchun qayta suhbat o'tkazilmaydi va ular oliy ta'lim muassasasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2-bosqichidan o'qishga qabul qilinmaydi.

Bitiruvchi uzrli sabablarga ko'ra (kasalligi, xizmat safarida bo'lganligi yoki oila a'zolarining vafot etganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganda) suhbatda ishtirok eta olmaydigan bo'lsa yoki ishtirok etmasa, suhbat o'tkazilgan sanadan uch kundan kechikmay oliy ta'lim muassasasida tuzilgan qabul komissiyasiga murojaat etishi lozim. Mazkur toifadagi bitiruvchilar uchun suhbat jarayonlari to'liq yakunlanganidan so'ng bir hafta muddat ichida qo'shimcha suhbat o'tkaziladi.

5. Savollar oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

6. Suhbat jarayonida Suhbat komissiyasining har bir a'zosiga ushbu Nizomga 1-[ilovaga](#) muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchining suhbat natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda - suhbat natijalarini qayd etish varag'i) beriladi.

Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan suhbat natijalarini qayd etish varag'iga har bir bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbat natijasiga ko'ra ball belgilab boriladi va imzolanadi.

Texnikum bitiruvchilarini oliy ta'lim muassasasi bakalavriat ta'lim yo'nalishiga suhbat asosida qabul qilish uchun BAHOLASH MEZONLARI

Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga

1) Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.

2) Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish).

3) Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari).

4) Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi bo'yicha jami to'rtta savol beriladi.

Har bir variantda 4 tadan savollari mavjud bo'lib, har bir to'g'ri javob uchun 25 ball beriladi. Savollar uchun eng yuqori ball – 100 ballni tashkil etadi. Suhbat natijalari quyidagi mezonlar bo'yicha to'plagan umumiy bali quyidagicha baholanadi.

Abituriyentning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

| № | Mezonlar | Baho | Xususiy ball |
|----------|--|-------------|---------------------|
| 1 | Abituriyent mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, tanlagan sohasining mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda soha bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda | A'lo | 90-100 |
| 2 | Abituriyent mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, tanlagan sohasining mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda soha bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda | Yaxshi | 78-89 |
| 3 | Abituriyent olgan bilimni amalda qo'llay oladi, sohaning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda soha bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda | Qoniqarli | 67-78 |
| 4 | Abituriyent tanlagan sohasini o'zlashtirmagan, sohaning mohiyatini tushunmaydi, hamda tanlagan sohasi bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda | Qoniqarsiz | 0-66 |

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar hisoblab chiqiladi va shu asosida ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda - suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i) to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi 67 ball va undan yuqori bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abituriyentlarga o'qib eshittiriladi.

Oliy ta'lim muassasasida suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyasiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya shikoyatlari suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida oliy ta'lim muassasasida to'g'ridan-to'g'ri yozma shaklda yoki Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn shaklda qabul qilinadi va appelyasiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda videoyozuv asosida ko'rib chiqiladi.

Suhbat natijalariga ko'ra talabalikka tavsiya etilganlar to'g'risidagi ma'lumotlar natijalar e'lon qilingan kundan boshlab uch kun muddatda oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan bo'ysunuvi bo'yicha vazirlik, idoraga taqdim etiladi.

Suhbat komissiyasining suhbat natijalarini qayd etish hamda suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varaqlari uch yil oliy ta'lim muassasasida saqlanadi.

SUHBAT JARAYONIDA BERILADIGAN NAMUNAVIY SAVOLLAR TO‘PLAMI

1. 60410100-BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT BAKALAVRIAT TA‘LIM YO‘NALISHIGA KIRISH UCHUN SUHBAT SAVOLLARI

1) Mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qanday maqsadlarni ifodalaydi?
2. Prezident olg‘a surgan 5 tashabbusni tushuntiring.
3. Tadbirkorlikni qanday tushunasiz?
4. Iqtisodiy erkinliklar nimalarda ifodalanadi?
5. Tadbirkorlikka qanday shart-sharoitlar yaratilmoqda?
6. “Yoshlar daftari”ga kimlar kiritilmoqda?
7. Tashqi iqtisodiy aloqalar nima uchun zarur?
8. Xorijiy investisiyalarni jalb etishning ahamiyati nimada?
9. O‘zbekiston Respublikasi qaysi ma‘muriy birliklardan iborat?
10. Markaziy Osiyo qaysi mamlakatlarni o‘z ichiga oladi?
11. “Yangi O‘zbekiston” atamasi nimani ifodalaydi?
12. Yangi O‘zbekiston rivojlanishini qaysi yetakchining nomi bilan bog‘lamoqdalar?
13. Sizing o‘zingiz Yangi O‘zbekiston uchun nimalar qilmoqchisiz?
14. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga kiritilayotgan qaysi o‘zgarishlarni Siz ma‘qullaysiz va nima uchun?
15. Ijtimoiy demokratik davlat tushunchasini tushuntirib bering.

2) Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko‘rsatish):

1. Iqtisodiyotning jamiyat hayotidagi o‘rni.
2. Iqtisodiy o‘shish nima uchun zarur?
3. Iqtisodiy o‘shishga qanday erishiladi?
4. O‘zbekistonda YAIM hajmi qanchani tashkil etmoqda?
5. YAIM nima?
6. Mehnat unumdorligini tushuntiring.
7. Korxonalarining qanday turlarilaini bilasiz?
8. Aksiyadorlik jamiyati nima?
9. Davlat mulkining xususiylashtirishi ahamiyatini tushuntiring.
10. Oilaviy tadbirkorlik haqida tushunchalaringizni bayon eting.
11. Namangan viloyatida iqtisodiyotning qaysi tarmoqlari rivojlanmoqda?
12. Siz yashayotgan tuman (shahar)da qaysi tarmoqlar rivojlanmoqda?
13. Eksport va importning ahamiyatini tushuntiring?
14. Aholi bandligini tushuntiring.
15. Mamlakatimizda yangi ish o‘rinlari qanday yo‘nalishlarda yaratilmoqda?

3) Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o‘qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas‘uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o‘z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);

1. Nima uchun bakalavriatning shu yo‘nalishini tanlaganingizni asoslab bering.
2. Buxgalterlik kasbi insonga qanday mas‘uliyat yuklaydi?
3. Buxgalter qanday ma‘naviy-ahloqiy xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim?
4. Buxgalter sport bilan shug‘ullanishi kerakmi, nima uchun?
5. Yaxshi buxgalter bo‘la olish uchun qaysi sohalarda ham puxta bilimlar zaurur deb hisoblaysiz?

6. Hozirga qadar qaysi fanlarni katta qiziqish bilan o'rgandingiz?
7. Fanlar bo'yicha olimpiada va musobaqalarda qatnashganmisiz, bu zarurmi?
8. Qaysi sohalar va fanlarga ko'proq qiziqasiz?
9. Shaxsiy qaror qabul qilinishida mas'uliyat, bilim, tajriba, maslahatlashish va murosa yo'lini tanlashning qaysi biri eng muhim?
10. Mustaqil qaror qabul qilishni har doim ma'qul deb hisoblaysizmi?
11. Insonga iqtisodiy mustaqillik zarurmi, nima uchun?
12. Inson iqtisodiy mustaqillikka qanday erishadi?
13. Bilim olishda qanday yutuqlarga va kimlar tufayli erishgansiz?
14. Sport sohasida qanday yutuqlarga erishgansiz?
15. Kelgusida qanday yutuqlarga erishishni rejalashtirmoqdasiz?

4) Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi:

1. Balans nima?
2. Moliyaviy hisobotlar turlarini tushuntiring.
3. Ikkiyoqlama yozuvni va uning ahamiyatini tushuntiring.
4. Ish haqi hisoblanganda qanday buxgalteriya o'tkazmasi beriladi?
5. Xodimning ish haqiga daromad solig'i hisoblanganda qanday buxgalteriya o'tkazmasi beriladi?
6. Hujjatlashtirishni tushuntiring.
7. Inventarizatsiyasini tushuntiring.
8. BHMS nima?
9. Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Qonunning mazmunini tushuntiring.
10. Auditorlik faoliyati to'g'risidagi Qonunning mazmunini tushuntiring.
11. Buxgalteriya o'tkazmalari natijasida balansda sodir bo'ladigan 4 xil o'zgarishlarni tushuntiring.
12. Kalkulyasiya nima?
13. Buxgalteriya hisobi yuritilishida baholash nima ekanligini tushuntiring.
14. Buxgalteriya hisobi registrlari.
15. Schetlar tizimi va schetlar rejasi.

2. 60610200-Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishiga kirish uchun suhbat savollari

1) Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.

1. "UZ" domenidagi domen nomlarini ro'yxatdan o'tkazish va ulardan foydalanishdan ko'zlangan maqsad nima?
2. Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yishdan ko'zlangan maqsad nima?
3. Mamlakatimizda axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida yosh mutaxassislarni rag'batlantirish bo'yicha qanday ishlar olib borilmoqda?
5. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga "E-qaror" elektron tizimini joriy etishdan ko'zlangan maqsad nima?
6. Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratishdan ko'zlangan maqsad nima?
7. O'zbekiston Respublikasida identifikatsiya ID-kartalarini rasmiylashtirish va berish tizimini joriy etish nima uchun kerak?
9. Dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarining milliy reyestri deganda nimani tushunasiz?
10. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish nima uchun kerak?

11. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish nima uchun kerak bo'ldi?
12. Dasturiy ta'minot vositalari eksporti va importi qilishdan ko'zlangan maqsad nima?
13. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad nima?
15. Mamlakatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish nima uchun kerak?
16. Elektron hukumat va davlat xizmatlari deganda nima tushuniladi?
17. Maxalliy va xalqaro AT sohasi bozori, tendentsiyalar, yangi ish o'rinlarini paydo bo'lishi shartlari.

2) Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish):

1. Axborot texnologiyalari mutaxassislari qanday muammolarni echadilar?
2. Axborot texnologiyalari mutaxassisini boshqa kasblardan afzalroq tomonlari bormi?
3. Axborot tizimlari va texnologiyalari ta'lim yo'nalishining mohiyati va ahamiyatini nimada?
4. Axborot tizimlari va texnologiyalari ta'lim yo'nalishining qanday muammolarni hal qiladi?
5. Axborot tizimlari va texnologiyalari ta'lim yo'nalishining mohiyati va ahamiyatini nimada?
6. Axborot texnologiyalari bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish nima uchun muhim?
7. Dastur ishlab chiqarish va sotish nima uchun daromadli soha hisoblanadi?
8. Axborot texnologiyalari bo'yicha yaxshi mutaxassis bo'lish uchun qaysi fanlarni yaxshi o'zlashtirish kerak?
9. Dasturlar insonlar hayotini yengillashtiradi deb o'ylaysizmi?
10. Qanday dasturlardan nima maqsadda foydalanasiz?
11. Dasturchi mutaxassislarni tayyorlash uchun Oligohda o'qish shartmi?
12. Qanday qilib axborot texnologiyalaridan foydalanib internet orqali pul ishlash mumkin.
13. Axborot texnologiyalari bo'yicha yirik kompaniyalar haqida nima bilasiz?
14. Axborot texnologiyalari bo'yicha o'qituvchilik kasbini boshqa kasblardan nima ustunligi bor?

3) Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);

1. IT muhandislik kasbi insonga qanday mas'uliyat yuklaydi?
2. IT muhandis qanday fazilatlariga ega bo'lishi lozim?
3. IT muhandis bo'lish uchun qaysi bilimlar zarur?
4. Shaxsiy qaror qabul qilinishida mas'uliyat, bilim, tajriba, maslahatlashish va murosa yo'lini tanlashning qaysi biri eng muhim?
5. Mustaqil qaror qabul qilishni har doim ma'qul deb hisoblaysizmi? Izoh bering.
6. Sizing xayotingizda internet muxim o'rin tutadimi?
7. Sizingcha kompyuter o'yinlariga qiziqish turli xil moliyaviy muammolarni tug'diradimi?
8. Shu kungacha AKT sohasida qanday yutuqlarga erishgansiz?
9. Sizga biror topshiriq berilsa boshqalar bilan maslaxatlashasizmi, nima uchun?
10. Sizingcha inson nega muvaffaqiyatga erisha olmaydi?
11. 5 yildan keyin o'zingizni qanday qiyofada aks ettirasiz?
12. AKT sohasida birinchi moliyaviy daromadingiz?
13. Inson nimani to'g'ri tanlash kerak deb o'ylaysiz?
14. Nima uchun bugun kunda til o'rganishga bo'lgan talab yuqori deb o'ylaysiz? Siz qaysi tilni o'rganayapsiz?
15. Sizingcha kelajakda biror nimani o'zgartira olaman deb o'ylaysizmi? Aynan nimani?

4) Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi:

1. Kompyuter xotirasini iyerarxik ko'rinishini so'zlab bering
2. Protsessorda buyruq bajarilish bosqichlari
3. Operativ xotira qanday xotira turiga kiradi va uning vazifalarini sanab bering
4. Ma'lumotlarni ketma-ket uzatuvchi universal shinalar, vazifalari va turlari?
5. EHM larning rivojlanish davrlari haqida nimalarni bilasiz?
6. Kompyuter tizimida kesh xotiraning o'rni, turlari va vazifalarini aytib bering
7. Axborot o'lchov birliklarini sanab bering.
8. Kompyuter tarmoqlarida bog'lanishlar bo'yicha qanday topologiyalarni bilasiz?
9. Umumiy shina topologiyali lokal tarmoqlar haqida nimalarni bilasiz?
10. Global va lokal tarmoq haqida gapirib bering
11. FTP (File Transfer Protokol) protokoli haqida gapirib bering
12. HTTP (Hyper Text Transfer Protocol) protokoli haqida gapirib bering
13. UTP kabeli haqida so'zlab bering
14. Modem turlari va vazifalarini aytib bering
15. Klient-server arxitekturasini tushuntirib bering
16. NTFS fayl tizimi haqida so'zlab bering
17. Fat, Fat32 fayl tizimlari haqida so'zlab bering
18. Fragmentatsiya haqida nimalarni bilasiz?
19. Operatsion tizim turlari va vazifalari?
20. Operatsion tizimning asosiy tashkil etuvchilarini sanab bering
21. Superkompyuterlar haqida nimalarni bilasiz?
22. Linux operatsion tizimi haqida gapirib bering
23. Monolit operatsion tizimlar haqida gapirib bering
24. BIOS haqida nimalarni bilasiz?
25. Antivirus dasturlari, ularning turlari va vazifalari haqida gapirib bering
26. Multipleksorlash haqida gapirib bering
27. Windows operatsion tizimida fayllarni boshqaruvchi tizimlar?
28. Windows OT da komand satrni chaqirib olish qanday amalga oshiriladi?
29. Windows OT da foydalanuvchini qo'shish jarayonini tushuntiring
30. Operatsion tizimlarda guruh tushunchasi?
31. Sesar shifrlash usulini tushuntirib bering
32. Elektron raqamli imzoni tushuntirib bering
33. Office paketlarga odatda qaysi muharrirlar kiradi va ularning vazifalari?
34. Kompyuter viruslari va ularning turlari?
35. Kompyuter viruslarining ta'siri bo'yicha turlanishi?
36. Antivirus dasturlarning ishlash prinsipi?
37. Arxivatorlarning turlari va vazifalari?
38. Arxivatorlarning ishlash prinsipi?

3. 60710400 - EKOLOGIYA VA ATROF-MUXIT MUXOFAZASI BAKALAVRIAT YO'NALISHI UCHUN BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHIGA KIRISH UCHUN SUHBAT SAVOLLARI

1) Mamlakatda atrof muxit muxofazasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish:

1. Tabiat muhofazasiing O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida aks etishi?
2. Tabiiy resurslardan samarali foydalanish tamoillari.
3. Ekologiya fani,uning maqsad va vazifalari?

4. Ekologiya faning rivojlanish tarixi?
5. O'zbekistondagi ekologik muommolar insonlarni ishlab chiqarish faoliyatlari bilan atrof muhit o'rtasidagi bog'liqlik?
6. "Ekologik omillar va ularning turlari?"
7. biosfera xaqida tushuncha?
8. Ekologik tizimlar?
9. inson ekologiyasi?
10. O'zbekistonning qazilma boyliklari va ulardan foydalanish?
11. Ekologiya va atrof muxit muxofazasi xaqida tushunchangiz?
12. Atmosferani tarkibi va tuzilishi?
13. Sizning o'zingiz ekologik muammolar uchun nimalar qilmoqchisiz?
14. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga kiritilayotgan qaysi o'zgarishlarni Siz ma'qullaysiz va nima uchun?
15. Atrof muxit muxofazasi tushunchasini tushuntirib bering.

2) Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish):

1. Ekologiyaning jamiyat hayotidagi o'rni.
2. Atrof-muxitni muxofaza qilish nima uchun zarur?
3. Atrof-muxitni muxofaza qilishga qanday erishiladi?
4. O'zbekistonda atrof-muxit muxofazasi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar?
5. Yashil makon nima?
6. Ekologiya va atrof muxit muxofazasi to'g'risidagi qonunni tushuntiring.
7. Korxonalarining atrof muxitga qanday ta'sirlarini bilasiz?
8. Inson ekologiyasi nima?
9. Tabiatda suvning roli va ahamiyatini tushuntiring.
10. Atrof muxit chikindilarini sinflanishi xaqida bayon eting.
11. Namangan viloyatida ekologiyaning qaysi tarmoqlari rivojlanmoqda?
12. Siz yashayotgan tuman (shahar)da atrof muxitga insonlarning munosabati?
13. Global ekologik muammolarni tushuntiring?
14. Hidrosfera ya'ni suvning tularini tushuntiring.
15. Mamlakatimizda transport vositalarini atrof-muxitga ta'siri?

3) Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);

1. Nima uchun bakalavriatning shu yo'nalishini tanlaganingizni asoslab bering.
2. Injener ekolog kasbi insonga qanday mas'uliyat yuklaydi?
3. Ekologiyaning maqsad va vazifalari?
4. Hidrosfera tushunchasi nima?
5. Ekologiya yo'nalishi uchun qaysi sohalar ham puxta bilimlar zaurur deb hisoblaysiz?
6. Hozirga qadar qaysi fanlarni katta qiziqish bilan o'rgandingiz?
7. Fanlar bo'yicha olimpiada va musobaqalarda qatnashganmisiz, bu zarurmi?
8. Qaysi sohalar va fanlarga ko'proq qiziqasiz?
9. Shaxsiy qaror qabul qilinishida mas'uliyat, bilim, tajriba, maslahatlashish va murosa yo'lini tanlashning qaysi biri eng muhim?
10. Mustaqil qaror qabul qilishni har doim ma'qul deb hisoblaysizmi?
11. Atmosfera nima?
12. Ishlab chiqarish korxonalarini atrof muxitga tasiri qanday?
13. Bilim olishda qanday yutuqlarga va kimlar tufayli erishgansiz?
14. Sport sohasida qanday yutuqlarga erishgansiz?
15. Kelgusida qanday yutuqlarga erishishni rejalashtirmoqdasiz?

4) Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi:

1. Tuproq nima?
2. Tuproq erroziyasini turlarini tushuntiring.
3. Xayvonot dunyosi uning ahamiyatini tushuntiring.
4. Atrof muxit muxofazasi bo'yicha qanday qonunlarni bilasiz?
5. Yashil makon milliy boyligimiz deganda nimani tushunasiz?
6. Orol muammosini tushuntiring.
7. Ekologik muammolar deganda nimani tushunasiz?
8. Ekologiya so'zining manosi nima?
9. Atrof-muxit muxofazasi to'g'risidagi Qonunning mazmunini tushuntiring.
10. Xozirgi kunda atrof-muxit muxofazasi bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda.
11. Tabiatni muxofaza qilishda davlat boshqaruvi tizimini tushuntiring.
12. Tabiiy resurslar nima?
13. Tabiiy resurslar turlari.
14. Sanoat tarmoqlaridagi ekologik muammolar.
15. Chikindilarni qayta ishlash deganda nimani tushunasiz.

4. 60712500-TRANSPORT VOSITALARI MUHANDISLIGI BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHIGA KIRISH UCHUN SUHBAT SAVOLLARI

1) Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish:

1. Transport to'g'risida qanday qonunlarni bilasiz
2. Transport soxasidagi qanday sungi yangiliklarni bilasiz.
3. Transport vositasi degan iborani qanday tushunasiz
4. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan transport siyosati.
5. O'zbekistonda transport soxasining hozirgi ahvoli va uning rivojlanish istiqbollari.
6. O'zbekiston xukumatining transport tarmog'ini rivojlantirish borasidagi amalga oshirayotgan chora-tadbirlari.
7. Transport to'g'risidagi qonun
8. Transport vositalarini ekologiyaga tasiri
9. Jamoat transporti qanday transport
10. Qanday transport turlarini bilasiz
11. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishda transport sohasining o'rni
12. Kasb-hunar maktablari va texnikumlarni bitiruvchilarga qanday imkoniyatlar yaratilgan
13. Yuk va yo'lovchi tashishda qanday me'yoriy xujjatlar talab etiladi
14. Harakat xavfsizligiga oid qanday qonunlarni bilasiz
15. Transport korxonalarining kelgusidagi faoliyatini qanday tasavvur etasiz

2) Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish):

1. Transport vositalarining jamiyat hayotidagi o'rni.
2. Jamoat transporti nima uchun zarur.
3. Muvaffaqiyatga qanday erishiladi.
4. O'zbekistonda qaysi avtomobil korxonalari faoliyat olib bormoqda.
5. Elektromobil nima.
6. Mashxur avtomobil injenerlaridan kimlarni taniysiz.
7. Korxonalarining qanday turlarini bilasiz
8. Avtoservis korxonasi nima

9. Tasavvuringizdagi transport qanday.
10. O'rta Osiyo sharoitida eng ko'p yuklar qaysi transportda tashiladi.
11. Namangan viloyatidagi transport sohasidagi korxonalar faoliyati.
12. Siz yashayotgan tuman (shahar)da qaysi tarmoqlar rivojlanmoqda?
13. Transportga oid so'nggi o'zgarishlar
14. Respublikaning jaxon avtomobilsozligida tutgan o'rni
15. Mamlakatimizda yangi ish o'rinlari qanday yo'nalishlarda yaratilmoqda?

3) Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);

1. Nima uchun bakalavriatning shu yo'nalishini tanladingiz.
2. Injenerlik kasbi insonga qanday mas'uliyat yuklaydi
3. Injener qanday fazilatlarga ega bo'lishi lozim
4. Injenerga sport bilan shug'ullanishi kerakmi
5. Injener bo'lish uchun qaysi bilimlar zaurur deb hisoblaysiz
6. Qaysi fanlarni qiziqish bilan o'rgandingiz
7. Tanlagan yo'nalishingizdagi qaysi mashhur firmalarni bilasiz
8. Qaysi sohalar va fanlarga ko'proq qiziqasiz
9. SHaxsiy qaror qabul qilinishida mas'uliyat, bilim, tajriba, maslahatlashish va murosa yo'lini tanlashning qaysi biri eng muhim
10. Mustaqil qaror qabul qilishni har doim ma'qul deb hisoblaysizmi
11. Insonga iqtisodiy mustaqillik zarurmi, nima uchun
12. Inson iqtisodiy mustaqillikka qanday erishadi
13. Bilim olishda qanday yutuqlarga va kimlar tufayli erishgansiz
14. Oxirgi o'qigan kitobingizni sharhlab bering.
15. Kelgusidagi rejalaringiz.

4) Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi:

- 1) Respublikada avtomobil sanoatini barpo etilishi.
- 2) Respublikada avtomobil sanoati va transportni rivojlanish istiqbollari.
- 3) Avtomobilning umumiy tuzilishi nimalardan iborat
- 4) Avtomobilning asosiy qismlarini vazifasini qisqacha bayon eting
- 5) Avtomobilda dvigatelning vazifasi nimadan iborat
- 6) Dvigatel qanday mexanizm va tizimlardan tashkil topgan
- 7) To'rt taktli dizel dvigatelida taktlarning ketma-ketligi qanday tartibda bo'ladi
- 8) Dvigatelni sovutish nima uchun zarur
- 9) Radiator nima uchun xizmat qiladi va qanday tuzilgan
- 10) Suyuqlik nasosi nima uchun xizmat qiladi va qanday tuzilgan
- 11) Ventilyator nima uchun xizmat qiladi va qanday harakatlanadi
- 12) Dvigatelda moylash tizimining qo'llanilishini sababi nima
- 13) Suyultirilgan va siqilgan gazlar xaqida ma'lumotlarni ayting
- 14) Injektorli ta'minlash tizimini tushuntiring
- 15) Transmissiyaning vazifasi

5. 60720800-MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHIGA KIRISH UCHUN SUHBAT SAVOLLARI

1) Mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish:

1. 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida qanday tushunchalarga egasiz.
2. Prezidentimiz olg‘a surgan 5 tashabbusni tushuntiring.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga kiritilayotgan qaysi o‘zgartirishlarni siz ma’qullaysiz va nima uchun?
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qanday maqsadlarni ifodalaydi?
5. O‘zbekistonda qanday metall va qotishmalar ishlab chiqariladi?
6. O‘zbekistonda qanday nodir metallar ishlab chiqariladi?
7. O‘zbekistonda qanday yirik mashinasozlik zavodlari mavjud?
8. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati to‘g‘risida ma’lumot byering.
9. Navoi kon-metallurgiya kombinati to‘g‘risida ma’lumot byering.
10. O‘zbekistonda ishlab chiqariladigan avtomobillar haqida ma’lumot bering.
11. O‘zbekistonda qanday qishloq xo‘jaligi texnikalari va mashinalari ishlab chiqariladi?
12. Namangan viloyatidagi yirik mashinasozlik korxonalari to‘g‘risida ma’lumot byering.
13. Respublikamizda qanday rangli metallar ishlab chiqariladi?
14. O‘zbekistonda avtomobilsozlikni rivojlanish bosqichlarini aytib byering.
15. Respublikamizda qaysi korxonada myetall kesish dastgohlari ishlab chiqariladi?

2) Bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko‘rsatish):

